KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 5 (535) 2025-YIL, 8-FAEVRAL

ATLAS LIBOSI YARASHIQLI O‘ZBEGIM QIZLARI



O‘zbek xalqi madaniyati, ma'naviyati har jihatdan urf-odatlarga, muqaddas an'analarga sodiq holda rivojlanib bormoqda. Ammo, o‘zbek ayollari, onalarimiz, momolarimiz kiygan atlas, adras kabi dunyoga mashhur matolarimizdan tikilgan liboslar hali-hamon urfda.

Z.UMURZOQOV fotolavhasi.

YOSH JURNALISTLAR MAHORAT MAKTABI TINGLOVCHILARIGA SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi qoshidagi "Yosh jurnalistlar mahorat maktabi"ning navbatdagi o‘quv kursini tamomlaganlarga sertifikat topshirildi.

Tadbirda bo‘lim raisi Maxpura Artiqova va "Aktual TV media" MChJ rahbari, mediatrener Abduvali Qurbonovlar jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, OAVning jamiyat va ijtimoiy hayotdagi o‘rni xususida so‘z yuritdi.

Viloyatdagi OTMlar talabalari va viloyatning turli hududlarida istiqomat qiluvchi 30 nafardan ortiq o‘quvchi yoshlar sentabr oyidan boshlab mahorat saboqlari olishdi.

-Jurnalistikaga qiziqaman. Shu bois mazkur maktabning navbatdagi guruhiga kasting e'lonini ko‘rib keldim. Mashg‘ulotlarda jurnalistikadan boshlang‘ich saboqlarni oldik. Bo‘sh vaqtimda "Asaka oqshomi" gazetasi tahririyatiga kelib amaliyot o‘tadim. "Aktual TV"ga ham materiallar tayyorladim. Jurnalist bo‘lish orzusi mashg‘ulotlardan so‘ng yanada mustahkamlandi, - dedi Dilrabo Mamirova.

Islombek SOLIEV,
jamoatchi muxbir.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son hamda "O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida" 2024-yil 18-dekabrda 849-son Qaror qabul qilindi.

YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SUD EKSPERTIZASI IMKONIYATLARI

Vazirlar Mahkamasining mazkur Qaroriga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy sudi, Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligining Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Toshkent viloyati hududiy bo‘limini tashkil etish haqidagi taklifi ma'qullanib, 2026-yil 1-iyunga qadar Markazning Toshkent viloyati bo‘limini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan O‘zDSt ISO/IEC 17025:2019 davlat standarti talablariga javob beradigan binoga joylashtirish hamda maxsus mebel, kompyuterlar, boshqa zarur texnika va inventarlar, shuningdek, yuqori malakali professional kadrlar bilan ta'minlash;

Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini aniqlash hamda ushbu mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksport qilishda qulayliklar yaratish maqsadida X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida iste'mol mahsulotlari tarkibida genetik modifikastiyalangan organizmlar (GMO) mavjudligi va ichimlik suvining tarkibini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshiruvchi Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasi tashkil qilinishi nazarda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 2025-yil 1-noyabrga qadar Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasini yuqori malakali professional kadrlar, shuningdek, Markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan maxsus mebel, kompyuterlar, boshqa zarur texnika va inventarlar bilan ta'minlash, 2025-yil 1-oktyabrga qadar Markazda genetik modifikastiyalangan organizmlarni (GMO) aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan uslublarni ishlab chiqish, Markaz laboratoriyalari uslublarining Milliy akkreditastiya tizimida xalqaro ilmiy-texnik talablarga muvofiqligi akkreditastiyadan o‘tkazib borilishini tashkil etish, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 2024-2026-yillarda sud ekspertizasi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar malakasini oshirish va ularni xorijiy davlatlarga stajirovkaga yuborish, 2025-yil 1-dekabrga qadar Markazda sud-axloqshunoslik ekspertizasini, parfyumeriya sanoati mahsulotlarining kimyoviy tarkibini hamda qurilish materiallari tadqiqotlarini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatildi.

2025-yil 1-oktyabrga qadar Markazning Navoiy viloyati bo‘limida Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda Sud-xatshunoslik va hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizalari, 2026-yil 1-noyabrga qadar Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limida Sud-fonografiya, sud-yong‘in texnika va elektrotexnika ekspertizalari, 2026-yil 1-dekabrga qadar Markazning Qashqadaryo viloyati hududiy bo‘limida Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda Sud-xatshunoslik va hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizalari va tadqiqot turlarini bosqichma-bosqich joriy etish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taklifi ma'qullandi.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori qabul qilinishidan asosiy maqsad, sud ekspertizasini tayinlashga vakolatli organlarga sud ekspertiza sohasida qulayliklar yaratish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘z ichiga olgan holda ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish imkoniyatlarini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy sud ekspertizasi imkoniyatlari deb hisoblash mumkin.

SH.PATIDINOV,
Markazning Andijon viloyati bo‘limi boshlig‘i.



ANDIJONDA MURAKKAB JARROHLIK AMALIYOTI O'TKAZILDI

Mamlakatimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli hududlarda ham murakkab jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yilmoqda. Andijon davlat tibbiyot institutining umumiy jarrohlik va transplantologiya kafedrasi shifokorlari tomonidan buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti muvaffaqiyatli bajarildi.

- O'g'lim ikki oy davomida qattiq betoblandi, - deydi Murodjon Mamajonov. - Shifokorlar uning buyragi nevroskleroz holatida ekanligini aytishdi. Buyrak almashtirish orqali shifo topishi mumkin ekan. Bu kabi jarrohlik amaliyotlari asosan Hindiston davlatida o'tkazilishi haqida eshitgan edik. Afsuski, bizda bunga imkoniyat yo'q edi. Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi najot berdi. O'z buyragimni o'g'limga ko'chirib o'tqazishlarini iltimos qildim. Jarrohlik amaliyoti olti soat davom etdi. Hozir ota-o'g'il sog'lommiz. Farzandim Shamsiddin oila qurib, farzand ko'rishi mumkinligini eshitib, shifokorlarni duo qilib o'tiribman. Respublikamizning hududlarida ham shunday sharoitlar yaratilganidan minnatdormiz!

Aytish joiz, bugungi kunda Andijon tibbiyot instituti klinikasida miyada yopiq jarrohlik, buyrak, jigar ko'chirish amaliyotlari ham muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

S.XUSANOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

ANDIJON TUMANIDA KITOBXON OILALARGA KOMMUNAL TO'LOVI TO'LAB BERILADI



Andijon tumani hokimligi tomonidan aholini kitobxonlikka keng jalb etish maqsadida tanlov e`lon qilindi. Tanlov shartiga ko'ra asosan yosh oila sohiblari o'z xohishlariga binoan "Kitobxon oila" dasturiga a`zo bo'lishi va uch oy davomida saralangan 5 ta kitobni o'qib, boshqalarga ham targ'ib qilishi kerak.

Tanlov g'oliblari mahalliy hokimlik tomonidan munosib rag'batlantirilibgina qolmasdan, shu davr ichidagi kommunal to'lovlari ham to'lab beriladigan bo'ldi.

- Masalaning moddiy tomoniga qiziqib dasturga a`zo bo'lishni istovchilar topilishi tabiiy hol, - deydi xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi deputati Matlubaxon G'aniyeva. - Maqsad esa aholini kitobxonlikka, ma`naviyatga, ma`rifatga jalb etishdan iborat. Shu bois oila a`zolaridan o'qigan kitoblari haqidagi fikrlari o'rganib boriladi.

Ushbu loyiha ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda. So'nggi uch kun ichida tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lganlarning soni 4 ming nafardan oshgani bunga yorqin misoldir.

D.ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" muxbiri.

KASB HUNAR EGALLASH FAROVON HAYOT SARI YETAKLAYDI

Andijon viloyatida aholining foydali ijtimoiy mehnat bilan band bo'lmagan qismini kambag'allikdan farovonlik sari yo'naltirish maqsadida kasb-hunar va til o'rgatish kurslariga taklif etilmoqda. Bu borada o'tgan yili 5 ta yo'nalish mavjud bo'lgan bo'lsa, joriy yilda ularning ko'rsatkichi 17 taga yetkazildi.

- O'quv muassasamizda asosan tikuvchilikka qiziqqan xotin-qizlar uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etganmiz, - deydi Oltinko'l tumanidagi 2-politexnikum mutaxassisi Mashhuraxon Yo'ldosheva. - Kurslarni tamomlagan bitiruvchilarga xalqaro sertifikat topshiriladi. Oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda subsidiya asosida tikuv mashinalari ajratish bilan bir qatorda ishga joylashtirish masalasi ham ko'rib chiqiladi. Bir so'z bilan aytganda, tinglovchilarimizni daromad manbaiga yo'naltirish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Hozirda viloyatdagi 55 ta texnikumlarda ana shunday kurslar tashkil etilgan bo'lib, ularga 4556 nafar aholi jalb qilingan.

M. MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.



SUD QARORISIZ ALIMENT UNDIRISH MUMKINMI?

Konstitutsiyamiz va Oila kodeksida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashiga majburdirlar degan norma mustahkamlangan. Ushbu qonuniy kafolat o'z navbatida aliment huquqi va majburiyatlarini ham keltirib chiqaradi.

"Aliment" so'zi aslida lotincha so'zdan olingan bo'lib, ta'minot berish, boqish, degan ma'nolarni anglatadi.

aliment undirish to'g'risidagi ishlarni to'lash shakliga ko'ra uchga bo'lish mumkin:

1) ixtiyoriy yo'l bilan;

2) kelishuv yo'li bilan;

3) sud yo'li bilan.

Aliment majburiyatlari ba'zan aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyidan yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya yo boshqa turdagi mablag' olayotgan joydan to'lanadi. Bunday holda ma'muriyat yozma arizaga asosan har oylik ish haqidan aliment summasini ushlab qolib, arizada ko'rsatilgan shaxsga, ya'ni aliment oluvchiga jo'natib turadi. Ma'muriyat orqali aliment to'lash tartibi aliment to'lovchi va aliment oluvchi uchun qulaylik tug'diradi. Qonun mazmuniga ko'ra aliment to'lovchining bunday tartibda aliment to'lashi uning huquqi hisoblanadi, lekin majburiyati emas. Bu yo'lda qonun aliment olishi lozim bo'lgan shaxsning sud himoyasidan foydalanish huquqini qo'riqlab, sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Alimentni ixtiyoriy tartibda to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Alimentni ixtiyoriy tartibda to'lash aliment to'lovchi shaxs bilan aliment undiruvchi shaxs o'rtasida tuzilgan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) asosida hal qilinadi.

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment miqdorini, shaklini va to'lash tartibini belgilovchi aliment to'lash to'g'risidagi notarial tasdiqlangan kelishuvni tuzishga haqlidir. Mazkur o'zaro kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak (Oila kodeksining 98-moddasi). O'zaro kelishuv aliment ta'minoti masalasini hal qilishning nafaqat eng tinch, balki eng tejamli yo'lidir. Kelishuvni tuzish jarayonida davlat notariusi mazkur kelishuv birinchi navbatda voyaga yetmagan bola manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligini inobatga olishi shart.

Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 130-moddasiga muvofiq, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo'ladi. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv taraflarning o'zaro roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish ham o'sha shaklda amalga oshiriladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning bajarilishini bir taraflama rad qilishga yoki uning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

X.KAXOROV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

NOTARIUS MEDIATOR SIFATIDA MEDIATSIYA TARTIB TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISHI

Bugungi kunda O'zbekistonda mediatsiyaga o'xshash yarashtiruv prosteduralari turli nizolarni hal etishda qo'llanib kelinadi. Jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan nizolashayotgan taraflarni, xususan, qo'shnilar o'rtasidagi nizolarni, oilaviy nizolarni yarashtirish faoliyatini ham mediastiyaning bir shakli sifatida ko'rish mumkin. Jamiyatimizda avvaldan mahalla raislari qo'shnilar, oila a'zolari, er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish vazifasini, ya'ni mediator vazifasini bajarishgan.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasida mediatorlik vazifasini bajarish notariuslar tomonidan amalga oshiradigan notarial harakatlar turiga kiradi.

61-1-moddasida notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo'yicha o'zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritishi, taraflar mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, notarius taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlashi belgilangan.

Notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo'yicha o'zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritadi. Notarius faqat notariuslar tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha mediator vazifasini bajaradi. Taraflar va mediator mediastiya ishtirokchilari hisoblanadi. Jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mediastiya taraflari bo'lishi mumkin.

Notarius asosan quyidagi nizolar bo'yicha:

Oilaviy nizolar (er-xotinning mol-mulkini bo'lish);

Meros bilan bog'liq nizolar (meros mol-mulkini taqsimlash, merosxo'rlar o'rtasida ulushlarni bo'lish va boshqalar);

Boshqa nizolar (pul majburiyatlari, mulkni topshirish majburiyatlari, qarz majburiyatlari, garov munosabatlari bo'yicha majburiyatlar) mediativ kelishuvni tasdiqlaydi:

Mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun taraflar o'zaro kelishuvga ko'ra notarial harakatni amalga oshirgan notariusga yoki boshqa notariusga murojaat qilishi mumkin. Manfaatdor taraf nizoning ikkinchi tarafiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmunini izohlagan xolda notariusga kelishuv tartib-taomilini qo'llash haqida ariza bilan murojaat etadi. Agar taraflar notariusga nizolashayotgan masala bo'yicha mediastiyani qo'llash haqida birgalikda murojaat qilsalar, ular ushbu masala bo'yicha mediastiya tartib-taomilini amalga oshirishga roziligi haqidagi o'zlari tuzgan yozma shakldagi kelishuvni notariusga taqdim etishlari kerak bo'ladi.

Notarius mediativ kelishuvni tasdiqlashdan oldin mediastiya tartib-taomili amalga oshiradi bunda bir vaqtning o'zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o'tkazadi, ularga nizoni hal etishga doir og'zaki va yozma tavsiyalar beradi, mediastiya boshlanguniga qadar mediastiya taraflariga mediastiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, taraflarning o'zaro fikr va takliflarini almashishlarini ta'minlaydi, taraflar tomonidan nizoni tartibga solish turini taklif qiladi. Mediastiyani amalga oshirish muddati mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvda taraflar tomonidan ixtiyoriy belgilansa-da lekin bunda muddat o'ttiz kundan oshmasligi lozim.

Rabixon NOSIROVA,
Buloqboshi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

RIVOJLANADI

Andijon viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha zarur ishlar olib borilmoqda. Turistik maskanlarni obodonlashtirish hamda yangi yo‘nalishlarni tashkil etish, hududga kelayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini oshirishda muhim vazifalar belgilab olingan.

ANDIJONDA TURIZM YANADA RIVOJLANADI



- Bugungi kunda viloyatda 167 ta turistik tashkilot faoliyat yuritmoqda, - deydi Andijon viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikastiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Davronbek Sattorov. - Tanlab olingan ob'ektlar bo‘yicha turistik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Sayyohlarga 45 ta tur paketlar taklif etilmoqda. Shuningdek, viloyatda bir vaqtning o‘zida 3 ming 500 nafar sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega 22 ta mehmonxona, 105 ta oilaviy mehmon uy va 27 ta xostel faoliyat ko‘rsatmoqda.

Turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar samarasi o‘laroq, 2024-yil davomida viloyatga 499 ming nafar xorijiy, 1 million 650 ming nafardan ziyod mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi.

Turizm ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish, turistlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida viloyatdagi eng ko‘p sayyohlar tashrif buyuradigan tarixiy va diqqatga sazovor maskanlar to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, 79 ta ob'ekt ajratib olindi. Ularning aksariyatida, xususan, Jalaquduq tumanidagi "Qutayba ibn Muslim", Izboskan tumanidagi "Yakkatut azizlari" ziyoratgohi va Andijon tumanidagi "Solih hoji" masjidi, Asaka tumanidagi "Muhammad Siddiq eshon", Andijon shahridagi "Yunus hoji" masjidi, "Ark ichi" yodgorlik majmuasida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Turizmni rivojlantirish, mazkur sohadagi imkoniyatlarni targ‘ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, o‘tgan yili Germaniyaning Berlin shahrida o‘tkazilgan ITB-Berlin, Yaponiyaning Tokio shahrida bo‘lib o‘tgan "Tokio expo Japan 2024" xalqaro turizm yarmarkalarida, shuningdek, Qirg‘iz Respublikasida bo‘lib o‘tgan "Salom O‘sh 2024" xalqaro turizm yarmarkasida Andijon viloyatining turizm salohiyati keng targ‘ib etildi. Bundan tashqari, o‘tgan yilning noyabr oyida Toshkent shahrida o‘tkazilgan "Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi" doirasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha turli turistik kompaniyalar bilan 70 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

Sayyohlar sonini, ularning viloyatda qolish vaqtlarini oshirish va ob'ektlarni to‘liq ishlatish maqsadida "Andijon viloyatining turizm halqasi" va "Andijon viloyatining turizm magistrali" deb nomlanuvchi turizm marshrutlari ishlab chiqildi. Bu sayyohlarga o‘zlarining vaqti va qiziqishiga ko‘ra, turistik marshrut yo‘nalishini tanlash imkonini berdi. Qolaversa, ushbu amaliyot joriy etilishi bilan viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi qariyb 35 foizga oshdi, ularning viloyatda qolish muddati esa 1,5 kundan 3 kungacha uzaydi.

Ayniqsa, Xonobod shahrida 2024-yilning 29-31-iyul kunlari bo‘lib o‘tgan "Dunyo sadolari" xalqaro milliy estrada san'ati festivali, oktyabr oyida Andijon shahrida futzal bo‘yicha jahon chempionati guruh bosqichi o‘yinlari o‘tkazilganligi xorijiy sayyohlar tashrifini keskin oshirdi. Xonobodda mahalliy va xorijiy sayyohlar soni 2 million nafarga yetdi. Futzal bo‘yicha jahon chempionati guruh bosqichi hamda 1/8 final o‘yinlarini ko‘rish uchun Ispaniya, Qozog‘iston, Yangi Zelandiya, Liviya, Ukraina, Afg‘oniston va boshqa qator davlatlardan 16 ming nafardan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi.

Xo‘jaobod tumani Toshota mahallasidagi "Imom ota" ziyoratgohi landshaft dizayni asosida tartibga keltirilib, tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, mazkur hudud turizm qishlog‘iga aylantirildi. Ayniqsa, hududdagi ikki tog‘ qoyasi o‘rtasiga qurilgan osma sim yo‘li sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Bundan tashqari, Xitoy tajribasi asosida Buloqboshi tumanidagi Shirmonbuloq mahallasini "Turizm mahallasi"ga aylantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra mazkur mahallada 20 ta kapsula, 20 ta oilaviy mehmon uyi, 5 ta yirik xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, zamonaviy osma sim yo‘li va "zipline" xizmat turlarini tashkil etish rejalashtirildi.

Shuningdek, viloyatda gastronomik, tibbiyot, ta'lim turizmi ham tobora rivojlanib bormoqda. Jumladan, gastronomik turizm yo‘nalishida o‘tgan yili viloyat markazida Xitoy restorani ochildi, dengiz mahsulotlari bozori tashkil etildi. Bundan tashqari, Andijon shahrida turk, rus, koreys, uyg‘ur taomlari restoranlari ishlab turibdi.

Ta'lim turizmi yo‘nalishida esa hozirda Andijondagi oliy o‘quv yurtlarida 800 nafardan ziyod xorijlik, asosan, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Rossiya va qirg‘izistonlik talabalar tahsil olmoqda.

Joriy yilda xorijlik talabalar sonini 2 ming nafarga yetkazish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Andijon va Hindistondagi oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida hamkorlik, ta'lim turizmini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha memorandumlar imzolagan. Ana shu hamkorlik doirasida Dehli shahrida Andijon davlat tibbiyot institutining 2 ta vakolatxonasi ochilgan. Ushbu vakolatxonalar tomonidan hindistonlik yoshlarni Andijonda o‘qishga jalb etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Tibbiyot turizmi yo‘nalishida o‘tgan yili viloyatga 30 ming nafarga yaqin chet el fuqarosi asosan Qirg‘iziston Respublikasi fuqarolari davolanish uchun tashrif buyurdi. Viloyatda tibbiyot xizmatlarining narxlari qo‘shni davlatlarga nisbatan arzonligi, xizmat sifati yuqoriligi hamda ayrim tibbiyot xizmatlari bo‘yicha yetakchiligi tufayli tibbiyot turizmining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda Xonobod shahrini Farg‘ona vodiysining turizm markaziga aylantirish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

Dengiz sathidan 850 metr balandlikda joylashgan, "O‘zbekiston Shveystariyasi" deb nom olgan Xonobod shahri musaffo havosi, go‘zal va xushmanzara tabiati bilan ajralib turadi.

Xonobodda keyingi yillarda "Xonobod" sihatgohi qurilib, foydalanishga topshirildi, ko‘plab mehmon-uylar barpo etildi. "Xontog‘" dam olish maskani, "Fozilmon ota" ziyoratgohida sayyoh va ziyoratchilarning ko‘ngilli hordiq chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda Andijon suv omboriga tutash Kampirovot mahallasida "Sun'iy ko‘l", dam olish va ko‘ngilochar, ekoturistik maskanlar, shuningdek, oilaviy mehmon uylari barpo etilmoqda.

2025-yil davomida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yangi 20 ta istiqbolli loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Joriy yilda 3 ta mehmonxona, 9 ta oilaviy mehmon uyi, 4 ta xostel va 4 ta yirik xizmat ko‘rsatish loyihalari tashkil etiladi. Jumladan, ayni paytda Andijon shahrida 450 o‘rinli 3 ta mehmonxona barpo etish ishlari olib borilmoqda.

Faxriddin UBAYDULLAEV,
Zuhriddin UMRZOQOV (surat),
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zolari.

FUQARONING MUAYYAN JOYDA EKANLIGINI QANDAY TASDIQLAYDI?

Notarius fuqaroning iltimosiga ko‘ra uning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi.

Dastlab notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchilarning shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchi fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, ID-kartasi;

16 yoshga to‘lmagan fuqarolarning shaxsi - tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar;

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

xorijda doimiy yashayotgan va konsullik ro‘yxatida turgan O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun - O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning shaxsini hamda yuridik shaxsning huquq layoqatini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishda "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikastiya raqami kiritilishi shart.

Notarius notarial harakat amalga oshirishni so‘rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Notariusga murojaat etgan shaxsning ruhiy holati buzilganligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yadi deb hisoblash uchun asosi bo‘lsa-da, ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to‘g‘risida ma'lumotlar bo‘lmasa, u notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va sudning shu shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to‘g‘risidagi qarori mavjud yoki mavjud emasligini tizim orqali tekshiradi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslarning bosim yoki kuchli ruhiy hayajonlanish ostida deb hisoblash uchun asosi bo‘lsa notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi.

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Notarius ushbu qarordan norozi tomonning sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo‘lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs homiysining roziligini talab etadi.

Notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi.

Notarial harakatlar notarial idora binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida notarial harakat amalga oshirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va notarial harakatni amalga oshirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va video qayd etiladi.

Q.ABDURAHMONOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

FUQARO TIRIK EKANLIGI FAKTINI TASDIQLASH SHAXSIY ILTIMOSIGA KO‘RA AMALGA OSHIRILADI?

Ko‘pchilik notariatning uy-joylar, ko‘chmas mulklar, avtomashina va boshqa mol-mulklarni oldi sotdi hadya almashtirish bitimlarini rasmiylashtirishini, shuningdek, ishonchnomalar rasmiylashtirishi, mol-mulklarni garovga qo‘yish bitimlarini kabi bitimlarni rasmiylashtirishini, vasiyatnomalar, meros guvohnomalarini tasdiqlashini biladi. Chunki kimdir shu bitimni bevosita notariusda rasmiylashtirgan, kimdir sotgan, kimlardir sotib olgan, yana kimdir meros guvohnomasi olgan yoki shu kabi hujjatlarni olganlik haqida tanish bilishlardan eshitgan.

Notariuslar kundalik ish faoliyatida shartnoma va bitim, ariza va vasiyatnoma hamda meros guvohnomalaridan tashqari ayrim faktlarni tasdiqlash vakolatiga ega. Masalan, fuqaroning tirik ekanligi faktini, fuqaroning muayyan joyda ekanligi fakti, fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini, hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlash, yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash kabi notarial harakatlar bor.

Notarius fuqaroning tirik ekanligi faktini uning shaxsiy iltimosiga ko‘ra va uning ishtirokida tasdiqlaydi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchi fuqarolarning va yuridik shaxs vakilining shaxsi aniqlanadi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishda "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikastiya raqami kiritiladi.

Notarius notarial harakat amalga oshirishni so‘rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Yuridik shaxslar ishtirokidagi notarial harakatlarni amalga oshirishda notarius tomonidan ularning huquq layoqati tekshiriladi.



Notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi.

Qonunning 11-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

Notariuslar yoki notarial harakatni amalga oshiruvchi boshqa shaxs bitimlarni tasdiqlashda bitimlar, shartnomalar, vasiyatnoma, ariza va boshqalar matnini tayyorlab unga fuqarolar imzo qo‘yadilar va notarius uni tasdiqlovchi yozuvlar bilan tasdiqlaydi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga yetmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan tashkilotning yozma iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Notarius murojaat qilgan shaxsga fuqaroning tirik ekanligi holatini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

Mirshoxid QURBONOV,
Asaka tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

«ASAKA YOG‘» АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ АКЦИЯДОРЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

Ҳурматли акциядорлар!

"Асака ёғ" акциядорлик жамияти акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 28 февраль куни соат 14-30 да жамиятнинг мажлислар залида ўтказилади.

Манзил: Андижон вилояти, Асака шаҳри, Карвонсарой кўчаси, 5-уй. Акциядорларни рўйхатга олиш соат 13:30 дан бошланади.

КУН ТАРТИБИ

1. Акциядорлар навбатдан ташқари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш тўғрисида;
2. Саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш тўғрисида;
3. Жамиятнинг кўчмас мол-мулкларини сотиш тўғрисида.
4. Жамият акциядорларининг 2024 йил 11 декабрда бўлиб ўтган навбатдан ташқари умумий йиғилишида сотилиши белгиланган кўчар мол-мулклар юзасидан тузилган шартномаларни тасдиқлаш.
5. Акциядорлик жамиятининг акцияларини қонунчиликлар билан белгиланган тартибларда жамият томонидан сотиб олиниши тўғрисида.

Шунинг билан бирга, ҳурматли акциядорлар:

акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилиши кун тартибига акциядорлик жамиятининг кўчмас мол-мулкларини сотиш масаласи киритилганлиги муносабати билан, жамиятнинг кўчмас мол-мулкларини сотиш тўғрисида қарор қабул қилинишига қарши овоз берган акциядорлар бўлса ёки бу масалалар бўйича овоз беришда узрли сабабларга кўра иштирок этмаган акциядорлар бўлса, улар ўзларига тегишли акцияларнинг ҳаммасини ёки муайян қисмини жамият томонидан қайтариб сотиб олинишини талаб қилиш ҳуқуқи борлигини, қайтариб сотиб олиш баҳоси бир дона акция учун холис баҳоловчи томонидан баҳоланган 2.983,58 сўм (икки минг тўққиз юз саксон уч сўм 58 тийин) баҳода амалга оширилишини, акциядорларнинг ўзларига тегишли акцияларни акциядорлик жамиятининг қайтариб сотиб олиши тўғрисидаги ёзма талаблари акциядорлар умумий йиғилишининг тегишли қарори қабул қилинган кундан эътиборан ўттиз кундан кечиктирмай жамиятга тақдим этилиши лозимгини, ушбу кўрсатиб ўтилган муддат тугаганидан сўнг жамият қайтариб сотиб олиш талабини қўйган акциядорлардан акцияларни ўн кун ичида сотиб олишини, акциядорнинг ўзига тегишли акцияларни қайтариб сотиб олиш тўғрисидаги ёзма талаби акциядорнинг яшаш манзили (жойлашган манзили) ва у қайтариб сотиб олинишини талаб қилаётган акциялар сонини кўрсатган ҳолда жамиятга юборилиши лозимлигини, ўзларига тегишли акциялар жамият томонидан қайтариб сотиб олинишини талаб қилиш ҳуқуқига эга бўлган акциядорларнинг рўйхати озод бериш натижасида ушбу Қонунга мувофиқ акцияларни қайтариб сотиб олишни талаб қилиш ҳуқуқи юзага келиши мумкин бўлган масалалар кун тартибига киритилган акциядорлар умумий йиғилишида иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлган жамият акциядорлари реестрининг маълумотлари асосида тузилишини маълум қилади.

Акциядорларнинг умумий йиғилишида қатнашиш учун ўзингиз билан шахсингизни тасдиқловчи ҳужжат билан келишингизни, вакиллар, жумладан юридик шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда расмийлаштирилган ишончнома билан, жисмоний шахслар эса нотариал тартибда тасдиқланган ишончнома билан қатнашишлари лозимлигини сўраймиз.

Акциядорлар умумий йиғилиш ўтказилиши билан боғлиқ акциядорларга тақдим этилиши лозим бўлган ахборот (материаллар) ва маълумотлар жамиятдан ва Кузатув кенгашидан олиниши мумкин.

Акциядорларга умумий йиғилиш ўтказилиши ҳақида хабар бериш учун акциядорлар реестри - 2025 йил 05 февраль ҳолатига ёпилади.

Умумий йиғилишда қатнашиш учун акциядорлар реестри - 2025 йил 24 февраль куни ҳолатига тузилади.

Реестр ёпишга қарор қилган орган:
Кузатув кенгаши.

Реестр ёпилиши ҳақида қарор қабул қилинган сана: 2025 йил 5 февраль

Маълумот олиш учун телефон рақами:
+998-93-413-00-84

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2022 йил 6 октябрь куни вафот этган марҳум **NUMANOV SAIDMAXMUD,**

Андижон шаҳрида яшаб, 2019 йил 1 август куни вафот этган марҳума **NUMANOVA TABASSUM RUSTAMOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 26-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳар, Х.Ахмедов МФЙ, Космонавт кўчаси, 54-уйда яшаб 2022 йил 20 февраль куни вафот этган маҳрум **ТУРСУНОВ АВАЗБЕК**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Қизил Юлдуз кўчаси, 9/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.Х.Сидиқов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2020 йил 9 июль куни вафот этган марҳума **ZAYNABIDDINOVA KARAMATXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Айланма кўчаси, 1-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус О.З.Азимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2022 йил 25 апрель куни вафот этган марҳум **USMANOV ABIDJAN XXX**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 39-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ш.Ўринбоев нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2022 йил 5 июль куни вафот этган марҳума **БЎТАЕВА ТАДЖИХОН XXX**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 32-уй, 62-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.А.Камалов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2023 йил 16 март куни вафот этган марҳума **УСМАНОВА ДИЛНОЗА АБИДЖАНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Н.Охунов кўчаси, 1/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.М.Маматов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Яхши кўча, 90-уйда яшаб, 2024 йил 5 май куни вафот этган марҳум **TURAYEV XAMID PATULLAYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Қ.Э.Абдурахмонов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Навоий МФЙ, Келажак овози кўчаси, 3-уйда яшаб, 2024 йил 3 ноябрь куни вафот этган марҳум **MIRZABEKOV KAXRAMON ABDUPATTAYEVICH,**

Хонобод шаҳри, Янги ҳаёт МФЙ, Чаманзор 4 кўча, 36-уйда яшаб, 2024 йил 26 ноябрь куни вафот этган марҳума **ТУРДАЛИЕВА МУНАВАРА ХАРИСОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 2 ноябрь куни вафот этган марҳум **BARATOV RAXIMJON,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1998 йил 23 июнь куни вафот этган марҳум **БОЛТАБОЕВ МАМАСОЛИ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2012 йил 14 ноябрь куни вафот этган марҳума **JURAEVA INOYATHON,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 16 октябрь куни вафот этган марҳум **ABDUKARIMOV DILMURAD YUSUPOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 10 май куни вафот этган марҳум **ROZIKOV MUXITDIN MAMIROVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 22 август куни вафот этган марҳума **TESHABOYEVA DILBARXON RUZIBAYEVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2010 йил 18 июнь куни вафот этган марҳум **ТАЖИБАЕВ ФАЗИЛ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2019 йил 27 декабрь куни вафот этган марҳум **MAXMUDOV KABILJON KADIROVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Сарой-2 маҳалласида яшаб, 2020 йил 18 февраль куни вафот этган марҳум **РАХМОНОВ ХУРШИДБЕК**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ маҳалласи, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги йўл МФЙда яшаб, 2024 йил 20 майда вафот этган марҳума **НОРТОЖИХОН МУТАЛИБОВНА ДАВРОНОВА,**

Шаҳрихон тумани, Бешмаҳалла МФЙда яшаб, 2012 йил 6 сентябрда вафот этган марҳум **IKROMJON JO'RAYEV**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Сегаза МФЙда яшаб, 2023 йил 2 апрелда вафот этган марҳум **OTABEK KOMILJONOVICH UMIRZAQOV,**

Шаҳрихон тумани, Муллабой МФЙда яшаб, 2007 йил 20 июнда вафот этган марҳум **XALIM KARIMOVICH KARIMOV,**

Шаҳрихон тумани, Бешмаҳалла МФЙда яшаб, 2015 йил 15 ноябрда вафот этган марҳума **XALIMA XAKBERDIYEVA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Мингтепа МФЙдаги уйда яшаб, 2023 йил 9 апрель куни вафот этган марҳума **СУЛАЙМОНОВА САНОБАРХОН ЭРКАБОЕВНА,**

Марҳамат тумани, Кончилар МФЙдаги уйда яшаб, 2011 йил 16 июль куни вафот этган марҳума **ЮЛДАШЕВА АРТИКХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумаларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Ёлғизбоғ МФЙда яшаб, 2005 йил 2 октябрь куни вафот этган марҳум **АСҚАРОВ АБДУЛБАКИ,**

Пахтаобод тумани, Бойтўпи МФЙда яшаб, 2015 йил 6 февраль куни вафот этган марҳум **ТАДЖИБАЕВ ХАТАМЖОН САИТКУЛОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2024 йил 2 октябрь куни вафот этган марҳум **АХМЕДОВ ТУЛКИНЖОН САЙФИДДИНОВИЧ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2021 йил 22 август куни вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВ ИСМОИЛ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2009 йил 3 июль куни вафот этган марҳум **КИРГИЗОВ УМАРАЛИ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2023 йил 20 декабрь куни вафот этган марҳума **ЭРГАШОВА ОДИНАХОН ТЕШАБОЕВНА,**

Тошкент вилояти, Ўртачирчиқ туманида 2024 йил 23 январь куни вафот этган марҳум **ТЎРАБОЕВ ТЎХТАСИН СОТВОЛДИЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 7.02.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 7.02.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000117. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li